










**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 275,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 69,7 mln. AQSh dollariga yoki 33,8 % ga ko'paydi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-may, ming AQSh dollari)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	205 962,9	275 825,1	133,9 %	x
Eksport 	142 377,3	183 639,6	129,0 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	141 427,0	182 475,5	129,0	99,4
 <i>xizmatlar</i>	950,3	1 164,1	122,5	0,6
 <i>Oltin</i>	-	-	-	-
Import 	63 585,6	92 185,5	145,0 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	59 311,8	87 632,9	147,7	95,1
 <i>xizmatlar</i>	4 273,8	4 552,6	106,5	4,9
 Saldo	78 791,7	91 454,1	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 183,6 mln. AQSh dollariga (29,0 % ga ko'paydi) va import hajmi 92,2 mln. AQSh dollariga (45,0 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 91,5 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)**



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

SSA – 62,9
Eksport – 48,3
Import – 14,6



Turkiya

SSA – 49,8
Eksport – 44,8
Import – 5,0



**Rossiya
Federatsiyasi**

SSA – 48,7
Eksport – 33,3
Import – 15,4



Latviya

SSA – 17,5
Eksport – 16,5
Import – 1,0



Qozog'iston

SSA – 24,2
Eksport – 14,7
Import – 9,5



Ukraina

SSA – 8,2
Eksport – 7,8
Import – 0,4



**Koreya
Respublikasi**

SSA – 7,7
Eksport – 0,5
Import – 7,2



**Chexiya
Respublikasi**

SSA – 6,6
Eksport – 0,4
Import – 6,2



Germaniya

SSA – 4,8
Eksport – 0,4
Import – 4,4



**Qirg'iz
Respublikasi**

SSA – 3,7
Eksport – 2,5
Import – 1,2

Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (22,8 %), Turkiyada (18,1 %), Rossiya Federatsiyasida (17,7 %), Qozog'istonda (8,8 %), Latviyada (6,3 %), Ukrainada (3,0 %) va Koreya Respublikasida (2,8 %) qayd etilgan.


uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (39,8 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (33,7 mln. AQSh dollari), Rossiya (17,9 mln. AQSh dollari) va Latviya (15,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	80,5	54,8	62,9
Eksport	42,0	42,7	48,3
Import	38,5	12,1	14,6
Saldo	3,5	30,6	33,7
Turkiya	37,3	25,6	49,8
Eksport	24,0	24,9	44,8
Import	13,3	0,7	5,0
Saldo	10,7	24,2	39,8
Rossiya Federatsiyasi	77,6	48,6	48,7
Eksport	63,3	36,7	33,3
Import	14,3	11,9	15,4
Saldo	49,0	24,8	17,9
Latviya	11,4	11,3	17,5
Eksport	9,6	9,3	16,5
Import	1,8	2,0	1,0
Saldo	7,8	7,3	15,5
Qozog'iston	31,3	22,4	24,2
Eksport	24,2	15,6	14,7
Import	7,1	6,8	9,5
Saldo	17,1	8,8	5,2
Ukraina	3,6	1,6	8,2
Eksport	1,5	1,1	7,8
Import	2,1	0,5	0,4
Saldo	-0,6	0,6	7,4



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Qirg'iz Respublikasi	1,5	1,5	3,7
Eksport	1,3	0,8	2,5
Import	0,2	0,7	1,2
Saldo	1,1	0,1	1,3
Afg'oniston	0,5	1,4	2,2
Eksport	0,5	1,4	2,2
Import	-	-	-
Saldo	0,5	1,4	2,2
Litva	2,6	0,4	2,4
Eksport	0,0	0,0	2,0
Import	2,6	0,4	0,4
Saldo	2,6	0,4	1,6
Tojikiston	1,2	1,0	1,7
Eksport	1,2	1,0	1,7
Import	-	-	-
Saldo	1,2	1,0	1,7
Fransiya	-	-	1,6
Eksport	-	-	1,2
Import	-	-	0,4
Saldo	-	-	-3,7
Iroq	1,0	1,2	1,1
Eksport	1,0	1,2	1,1
Import	-	-	-
Saldo	1,0	1,2	1,1
Pokiston	0	0,5	1,3
Eksport	-	0,5	1,1
Import	-	-	0,2
Saldo	-	0,5	0,9



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Gruziya	0,3	0,1	1,0
Eksport	0,3	0,1	1,0
Import	-	-	-
Saldo	0,3	0,1	1,0
Koreya Respublikasi	24,5	14,3	7,7
Eksport	8,0	2,1	0,5
Import	16,5	12,2	7,2
Saldo	-8,5	10,1	-6,7
Estoniya	1,3	0,2	0,5
Eksport	1,0	0,2	0,5
Import	0,3	0,0	0,0
Saldo	0,7	0,2	0,5
Chexiya Respublikasi	0,3	0,0	6,6
Eksport	0,0	0,0	0,4
Import	0,3	0,0	6,2
Saldo	0,3	0,0	-5,8
Turkmaniston	2,7	1,1	1,2
Eksport	0,3	0,3	0,4
Import	2,4	0,8	0,8
Saldo	-2,4	-0,5	-0,4
Germaniya	2,0	0,6	4,8
Eksport	0,1	0,3	0,4
Import	1,9	0,3	4,4
Saldo	-1,8	-0,0	-4
Italiya	0,0	0,0	0,3
Eksport	-	0,0	0,3
Import	-	-	-
Saldo	-	0,0	0,3

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021 - yilning yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 5,2 % ga kamaygan.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-may oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 32,1 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 67,9 % ni tashkil etdi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 108 tani tashkil etib, ular tomonidan 183,5 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 29,0 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (72,9 %), sanoat tovarlari (11,3 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (10,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-may)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	183 614,9	129,0	100,0	60 636,3	109,0	100,0	123 003,3	141,8	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8 041,2	102,5	4,4	2 644,5	57,5	4,4	5 396,7	166,3	4,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,0	24,7	-	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18 385,9	102,3	10,0	1 267,3	90,1	2,1	17 118,6	103,3	13,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	533,6	0,7	738,1	-	1,2	462,9	205,7	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	133 801,2	130,7	72,9	50 441,2	110,9	83,2	83 359,9	146,6	67,8
Sanoat tovarlari	20 737,0	186,6	11,3	4 460,2	127,5	7,4	16 276,8	213,7	13,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	284,5	17,7	0,2	131,0	954,9	0,2	153,5	9,6	0,1
Xizmatlar	1 164,1	122,5	0,6	929,3	146,7	1,5	234,8	74,1	0,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-mayga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlari o'sish kuzatildi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-may, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,0	5,5	4,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,7	12,6	10,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	0,2	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,2	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	81,0	71,9	72,9
Sanoat tovarlari	8,6	7,8	11,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	1,1	0,2
Xizmatlar	0,5	0,7	0,6



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-may)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	5 679,5	81,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 195,4	262,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	142,9	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	20,0	4.b
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,2	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	2,3	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	24,7	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	15 578,3	143,2
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 569,4	45,2
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	32,8	61,6
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	205,4	14,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	5,3 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	19,3	149,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	133 702,2	130,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	74,2	244,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	-

Bo'yardigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	5,0	-
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	20 505,7	194,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	2,8	2,0 b
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	228,5	41,9
Metaldan tayyorlangan buyumlar	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	46,5	3,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	224,2	14,1
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	13,8	-
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	297,2	149,3
Transport xizmatlari	577,3	109,1
Safarlar (turizm)	289,5	135,8
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-maydagi 51,1 % dan 2021- yilning yanvar-mayda 33,0 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 67,0 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 26,3 % i), Turkiya (24,4 %), Rossiya Federatsiyasi (18,1 %), Latviya (9,0 %), Qozog'iston (8,0 %), Ukraina (4,3 %) va Qirg'iz Respublikasi (1,4 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,4 foizni tashkil etmoqda.



**RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI**
(2021- yil yanvar-may, % da)



2021- yilning yanvar-may oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasining ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Turkiya eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 34 davlatdan 36 davlatga ko'paydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-may)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	42746,0	48276,9	101,9	112,9	1	1
Turkiya	24940,9	44796,8	103,9	179,6	3	2
Rossiya	36715,7	33305,7	58,0	90,7	2	3
Latviya	9336,2	16451,7	97,3	176,2	5	4
Qozog'iston	15559,6	14697,8	64,4	94,5	4	5
Ukraina	1124,9	7815,5	76,4	694,7	10	6
Qirg'iz Respublikasi	777,0	2545,9	60,2	327,6	12	7
Afg'oniston	1390,6	2247,8	280,3	161,6	8	8
Tojikiston	-	1990,8	28,3	-	30	9
Fransiya	1014,6	1731,9	87,9	170,7	11	10
Litva		1240,7				11
Iroq	1180,7	1142,0	119,4	96,7	9	12
Pokiston	460,7	1068,7	-	232,0	13	13
Gruziya	96,9	1049,5	28,3	1082,6	22	14
Koreya Respublikasi	2062,4	482,6	25,9	23,4	7	15

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Estoniya	225,1	462,9	23,3	205,7	18	16
Chexiya Respublikasi	0,0	398,3	4,7	-		17
Turkmaniston	293,0	363,5	99,6	124,1	16	18
Germaniya	274,5	354,0	247,6	129,0	17	19
Italiya	0,0	298,8	-	-		20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-may, ming AQSh dollari)**


XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	20 318,9	38 626,6	31 214,0	33 384,4	30 490,4	26 841,6	8 410,1	14 035,5
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	477,5	568,5	31,6	372,6	517,8	144,9	22,9	28,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9 495,3	12 973,1	331,6	2 225	1 355,8	1 204,7	2 107,3	161,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash	27 522,2	23 244,1	21 663,2	38 498,8	31 141,1	27 364,6	7 206,1	16 261,7

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
mahsulotlar								
Sanoat tovarlari	3 656,8	11 336,4	2 914,1	3 699,2	3 336,2	4 070,5	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	-	-	-	0,5	-
Turli xil tayyor buyumlar	1 593,4	153,5	-	1,2	-	3,3	-	-
Xizmatlar	0,8	0,8	0,4		364,9	517,8	-	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 1 164,1 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 22,5 % ga ko'paydiganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (24,9 %), transport (49,6 %) hamda moliyaviy xizmatlar (25,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)**






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 2 250,7 ming AQSh dollari qiymatli 12 648,0 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 2 316,4 ming AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 49,3 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2 118,4 ming AQSh dollariga teng 12 488,1 tonna sabzavot, shuningdek, 243,9 ming AQSh dollari qiymatidagi 235,3 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 1,2 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-may, ming AQSh dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (89,2 %), Rossiya Federatsiyasi (5,9 %) va Italiya (4,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar

tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-may)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	20 659,5	3 938,3	86,0	12 709,6	2 207,3	89,2
Rossiya Federatsiyasi	1 197,5	517,8	11,3	157,1	144,9	5,9
Italiya	-	-	-	34,7	121,7	4,9
Xitoy Xalq Respublikasi	51,0	53,0	1,2	-	-	-

*- qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI








To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 20 737,0 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 11,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 86,6 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (98,9 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (1,1 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 12 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 8 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-may, ming AQSh dollari)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Paxtadan yigirilgan ip	9 240,9	16 124,2	22803,9
 Ipak va ipak mahsulotlari	380,6	87,6	91,9
 Naqshli mato	-	-	156,7
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	-	-	22,6
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	-	13,8
 Paxta mahsulotlari	22,8	-	-
 Paxtadan gazlamalar	-	-	-

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (11 391,7 ming AQSh dollari – 55,3 %), Rossiya Federatsiyasi (4 058,6 ming AQSh dollari – 19,7 %) va Turkiya (3 699,2 ming AQSh dollari – 17,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
(yanvar-may, ming AQSh dollari)



**DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI**
(yanvar-may, ming AQSh dollari)

Davlatlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	6732,8	3656,8	11391,7
Rossiya Federatsiyasi	1550,3	3328,4	4058,6
Turkiya	933,7	2914,1	3699,2
Qirg'iz Respublikasi	-	41,0	193,1
BAA	190,2		90,3
Portugaliya	-	-	84,5
Pokiston	-	455,0	1057,4
Hindiston	-	87,6	36,6
Polsha	-	172,1	-


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2021- yil yanvar-may)

2021- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 92,2 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 145,0 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (45,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,3 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan

28,6 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 87,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4,6 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-may)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	92 185,5	145,0	100,0	27 773,8	131,6	100,0	64 411,6	151,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12 222,3	145,6	13,3	8 989,5	123,9	32,4	3 232,8	-	5,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5 359,4	80,2	5,8	5 323,6	82,6	19,2	35,7	15,1	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6 393,9	166,0	6,9	2 584,7	172,1	9,3	3 809,2	162,1	5,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3 364,6	225,6	3,6	3 364,6	225,6	12,1	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9 554,6	98,7	10,4	1 220,6	283,2	4,4	8 334,0	90,1	12,9
Sanoat tovarlari	6 029,4	349,1	6,5	4 054,8	4 504,2	14,6	1 974,6	120,6	3,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	41 667,9	199,6	45,2	652,7	19,1	2,3	41 015,2	234,9	63,7
Turli xil tayyor buyumlar	3 040,8	46,0	3,3	85,7	47,8	0,3	2 955,0	45,9	4,6

Xizmatlar	4 552,6	106,5	4,9	1 497,6	491,7	5,4	3 055,0	77,0	4,7
-----------	---------	-------	-----	---------	-------	-----	---------	------	-----

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 6,1 % dan 16,9 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 59,8 % dan 45,2 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 3,3 % ni tashkil etdi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,5	13,2	13,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,7	10,5	5,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,4	6,1	6,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	2,3	3,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9,6	15,2	10,4
Sanoat tovarlari	4,7	2,7	6,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	55,9	32,8	45,2
Turli xil tayyor buyumlar	10,0	10,4	3,3
Xizmatlar	4,2	6,7	4,9

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning yanvar-may oylarida 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 4,9 % dan 0,7 % ga kamaydi.



**ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2021- yil yanvar-may, ming AQSH. doll.)**



**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-may)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	6 468,4	105,2
Tirik hayvonlar	3 998,6	297,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	27,6	46,0 b.
Sabzavotlar va mevalar	60,0	119,8
Go'sht va go'sht mahsulotlari	207,5	678,1
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	261,5	13,1 b.
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	107,6	298,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 091,3	250,4

Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	3 622,8	61,1
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	682,9	4,1 b.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 590,3	173,6
Ko'mir, koks va briketlar	790,0	125,2
Tabiiy yoki sun'iy gaz	13,7	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	3 364,6	225,6
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	-	-
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	599,6	190,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	67,4	149,8
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5 759,4	89,6
Organik kimyo moddalari	2 576,5	131,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	476,2	156,7
Noorganik kimyo moddalari	67,3	16,5
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	8,2	7,9
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	649,3	160,2
Rezina buyumlari	218,8	442,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar	673,8	126,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	88,7	232,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	585,4	87,9
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3 780,2	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	33,2	
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		


Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	7 069,3	73,5 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	14 566,8	297,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	5 154,3	131,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	1 379,4	
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	6 976,0	118,6
Metallarni qayta ishlash mashinalari	39,5	14,9
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	45,3	
Avtomobililar	2 903,5	163,8
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	158,3	59,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 277,6	3,0 b.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 551,0	29,7
Poyabzal	1,5	75,0 b.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	32,0	32,0 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	14,8	108,0
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	5,4	2,4 b.
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	2 285,1	66,6
Transport xizmatlari	79,6	157,3
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	1 615,8	5,2 b.
Moliyaviy xizmatlar	572,0	118,0

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (70,3 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (59,7 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog'och-taxtalar (38,9% ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini umumiy import hajmida 16,7 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasi (15,9 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2021- yilning yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 41 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-may)**

Davlat nomi	ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	11883,4	15375,0	82,8	129,4	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	12139,1	14618,7	31,6	120,4	2	2
Qozog'iston	6838,8	9534,6	96,4	139,4	4	3
Chvetsiya	112,3	8680,3	141,0	7731,7		4
Koreya Respublikasi	12233,2	7164,1	73,9	58,6	1	5
Vyetnam	5927,3	7088,6	114,0	119,6	5	6
Chexiya Respublikasi	23,8	6246,2	6,8	26249,2		7
Turkiya	711,7	4983,8	5,4	700,2		8
Germaniya	342,5	4433,3	18,3	1294,2		9
BAA	227,3	2702,2	20,9	1188,6	16	10
Qirg'iz Respublikasi	670,0	1238,6	319,9	184,9	15	11
Latviya	1977,0	963,4	111,0	48,7	6	12
Niderlandiya	177,6	921,6	69,5	519,0		13
Eron	1015,5	875,0	32,4	86,2	7	14
Turkmaniston	783,8	794,6	32,2	101,4	10	15
Vengriya		658,4	-	-		16
Polsha	694,3	559,8	42,9	80,6	14	17
Belgiya	540,3	449,2	97,6	83,1		18
Fransiya	11,8	437,2	80,5	3703,0		19
Ukraina	546,4	431,7	26,4	79,0	17	20


Shuni ta'kidlash kerakki, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Niderlandiya, AQSH, Buyuk va Britaniya kabi mamlakatlar

Qoraqalpog'iston Respublikasiga to var va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Chvetsiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam va Chexiya Respublikasi) jami importning 70,7 % ulushini tashkil qildi, bu 60,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-may, % da)




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy

Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)**



- Transport xizmatlari
- Safarlar (turizm)
- Moliyaviy xizmatlar
- Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari
- Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar

2021- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 4 552,6 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 1,8 % ga tushgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (50,2 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlar va (35,5 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (12,6 %) va transport xizmatlari (1,7 %) tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06**

